



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMLONIYATLAR

Ahmadjonova Dilnoza Azamjonovna

Andijon davlat universiteti

O'zbekiston kafedrasi II- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni tadbirkorligini qo'llab quvvatlash va yanada rivojlantirish haqida, Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, , xotin-qizlarni ta'lim olishi, ularni yaxshi va farovon hayoti uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ulkan imkoniyatlar , iqtisod, siyosat, xotin-qizlar, 5tashabbus, kasbiy ko'nikma, tadbirkorlik, imkoniyat, ta'lim, qo'llab-quvvatlash.*

Bugungi kunda har bir sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan "Ayollar daftari"ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy – huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Davlat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda –Ayollar daftarilni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, –2017 – 2021-yillarda[2] O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini –Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, biznes yuritishlari uchun qulay muhit va keng imkoniyatlar hamda kafolatlar berish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.[3]

Darhaqiqat, bilimli, dunyoqarashi keng ayollar doim jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Shu bois mamlakatimizda gender tenglikka erishish



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

borasida qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Masalan, 2019-yil 2-sentyabr kuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada barcha uchun teng huquqli va sifatli ta'limni ta'minlash, qishloq joylarida qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik, odam savdosining oldini olish kabi masalalar qamrab olingan. Umuman olganda so'nggi yillarda ayollarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bunday tarixiy jarayonda yirik kompaniyalar ham sohaga o'z hissasini qo'shishi, turli ijtimoiy loyihalar orqali xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashi zarur.

Ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilish, kafolatlarini kuchaytirish – ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning eng muhim jihatlaridan biri. Xususan, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddat bola parvarishida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash ishlari olib borish, shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirganlariga ko'maklashilib, biznes g'oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish bugungi kun talabi bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bilim va kasbiy ko'nikmalar egallab, munosib ish topishlariga ko'maklashish, salomatligini saqlash, uy-joy masalalarini hal etish borasida tizimli ish olib borilmoqda. —Ayollar daftoriga kiritilgan xotin-qizlar muammolarini hal qilish, tikuvchilik, hunarmandchilik, kasanachilik, [1]parrandachilik va ekin maydonlaridan yer ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar qilinmoqda. 2021–2022 o'quv yilida xotin-qizlarga 2000 nafar qo'shimcha davlat grantini ajratish taklif etilyapti.[7,8] 2021–2022 o'quv yilida OTMlarga qabul qilishning davlat buyurtmasiga oid prezident qarori loyihasi e'lon qilindi. Hujjatga ko'ra, bakalavrning barcha ta'lim shakliga jami – 157 879 nafar, magistraturaga 12 914 nafar, nodavlat OTMlarga esa 56 nafar davlat buyurtmasini belgilash taklif etilgan. Bundan tashqari, tavsiyanomaga ega xotin-qizlar uchun 2000 nafar qo'shimcha davlat granti ajratish ko'zda tutilmoqda.[5] 2021–2022 o'quv yilida OTMlarga qabulning davlat buyurtmasi parametrlari [6]to'g'risidagi prezident qarori loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Davlat buyurtmasi parametrlari doirasida yoshlarni oliy ta'limga qamrab olishni kengaytirish, davlat granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlarini 2020–2021 o'quv yiliga nisbatan 25 foizga oshirilgan holda belgilanishi kutilmoqda. Jamiyatda ayollar rolini oshirish, ehtiyojmand



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

oilalar qizlari uchun «ijtimoiy lift» tamoyili asosida xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish maqsadida alohida grant o'rinlari ikki barobarga oshiriladi. OTMlarga o'qishga qabul qilish davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirish bo'yicha kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlarini «quota.idm.uz» elektron portali orqali aniqlanadi. Vazirlik va idoralar, iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashda davlat grantini nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ham beriladi.[2] Oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlar uchun davlat buyurtmasi parametrlarining davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida maqsadli qabul parametrlari tuman (shahar)lar kesimida taqsimlanadi. Davlat oliy ta'lim muassasalariga Davlat buyurtmasi parametrlari: bakalavrlar tayyorlash bo'yicha: kunduzgi ta'lim shakliga – 115 343 nafar (shundan grant – 29638 nafar, kontrakt

- 85705 nafar); sirtqi ta'lim shakliga – 36 211 nafar;
- kechki ta'lim shakliga – 6 325 nafar.
- magistrLAR tayyorlash bo'yicha – 12 914 nafar (shundan grant – 7068 nafar, kontrakt – 5846 nafar); nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi parametrlari 56 nafar.

- Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakliga 2000 nafar qo'shimcha davlat granti ajratish taklif etilmoqda. Ma'lumot o'rnida, 2020 yilning 23 yanvarida Hukumat qarori bilan Xotin-qizlar uchun qo'shimcha grant asosida OTMga kirish tartibi belgilangan edi. Unga ko'ra, tavsiyanoma oliy ma'lumot olish istagida bo'lgan xotin-qizlarga 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi. O'tgan o'quv yili uchun Respublika bo'ylab jami 940 nafar xotin-qizga tavsiyanoma ajratilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Nazarov X.N., Jurayev R. Robototexnik sistemalar. T.: TDTU 2004y. - 50b.
2. N.R. Yusufbekov, va boshq. «Avtomatik boshqarish nazariyasi» Toshkent. O'qituvchi 1995y. -217-b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyoati to'g'risida» gi Qonuni,—Xalq so'zil, 2016 y. 15 sentabr IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI 5 IYUN / 2022 YIL / 19 - SON 596
4. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida» gi Qonuni, —Xalq so'zil, 2004 y. 11 fevral.